




INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



Google Scholar doi

zenodo

OpenAIRE



+998335668868



<https://innoworld.net>

2025



**«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-
QUVVATLASH MARKAZI**

**«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2025-YIL № 5-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025

Buxgalteriya hisobining shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlari
Tursunaliyeva Shohista Abdullo qizi.

Namangan davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti,

Buxgalteriya hisobi yo'nalishi 2 -bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada buxgalteriya hisobining shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlari yoritib berilgan. Qadimgi davrlardagi oddiy hisob-kitoblardan boshlab, o'rta asrlarda Italiyada ikkiyoqlama yozuv tizimining paydo bo'lishi, yangi davrda sanoat inqilobi ta'sirida hisobning rivojlanishi hamda XX asrda xalqaro standartlarning joriy qilinishi tahlil qilingan. Maqola buxgalteriya hisobining nazariy jihatlarini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Buxgalteriya hisobi, ikkiyoqlama yozuv, Luka Pacholi, moliyaviy hisobot, xalqaro standartlar, sanoat inqilobi, raqamli texnologiyalar, audit, boshqaruv hisobi.

Abstract. This article highlights the history and stages of development of accounting. It analyzes the evolution of accounting from simple calculations in ancient times to the emergence of the double-entry system in medieval Italy, the influence of the Industrial Revolution on accounting in the modern era, and the introduction of international standards in the 20th century. The article serves as an important source for studying the theoretical aspects of accounting.

Keywords: Accounting, double-entry system, Luca Pacioli, financial reporting, international standards, Industrial Revolution, digital technologies, audit, management accounting.

Buxgalteriya hisobining ildizlari insoniyat tarixining eng qadimiy bosqichlariga borib taqaladi. Miloddan avvalgi IV–III ming yilliklarda Mesopotamiya (Shumer, Bobil, Ossuriya), Qadimgi Misr va Hindistonda hisob-kitob ishlari uchun maxsus belgilar, gil taxtachalar va papiiruslardan foydalanilgan. U davrda xo'jalik faoliyati asosan dehqonchilik, chorvachilik va soliqqa tortish bilan bog'liq bo'lib, hisobning vazifasi mulk, mahsulot va qarzlarni sanab yozib borishdan iborat bo'lgan. Masalan, Mesopotamiyada topilgan Kish va Ur shaharlaridagi arxeologik yozuvlar — dunyodagi eng qadimgi buxgalteriya hujjatlari sifatida tan olinadi. Bu yozuvlarda bug'doy, yog' va shakar miqdori son jihatdan qayd etilgan. Qadimgi Misrda esa davlat amaldorlari soliqlarni yig'ish va omborlardagi zaxiralarni nazorat qilish uchun yozma hisobotlar tayyorlagan. XIII–XIV asrlarga kelib, savdo va bank tizimi rivojlanishi hisob-kitob tizimining murakkablashuviga olib keldi. Buxgalteriya hisobining paydo bo'lishidan boshlab o'tgan davr ichida uning shakllarida juda muhim o'zgarishlar sodir bo'lgan. Dastlabki rivojlanish bosqichida hisob korxonaning o'z egasi tomonidan mulklarning hech qanday zarar yetkazmasdan saqlanishini ta'minlash va olingan daromadning miqdorini kuzatish va nazorat qilish maqsadida yuritilgan. Ayniqsa, Italiya shahar-davlatlari – Venetsiya, Genuya va Florensiyada xalqaro savdo kengaydi,

murakkab hisob-kitoblarni yurita boshladi bu esa hisob yuritishni aniq va ishonchli qilish zaruratini tug'dirdi. Shu davrda ikkiyoqlama yozuv tizimi amaliyotga kiritildi, ya'ni har bir bitim "kimdan" va "kimga" tamoyili asosida ikki marta yozila boshlanadi. Buxgalteriya hisobining XV asrdagi adabiyotida birinchi marta yozilgan boshlang'ich shakllari yuzaga keladi. Bu tizimga ko'ra, har bir xo'jalik operatsiyasi ikki xil yozuvda aks ettiriladi: debet (qarzdorlik) va kredit (kreditorlik). Bu yondashuv moliyaviy muvozanatni ta'minladi. Ikkiyoqlama yozuv davri 1300-1850 yillarga borib taqaladi. "Ikkiyoqlama yozuv – bitta xo'jalik operatsiya bo'yicha bitta summaning o'zi, bir vaqtning o'zida buxgalteriya hisobining ikkita hisobvaraqlarida – ya'ni bittasining debetida va boshqasining kreditida aks ettiriladi."

Buxgalteriya hisobining rivojlanish bosqichlari (1-rasm)



1-Rasmda keltirilgan diagramma buxgalteriya hisobi rivojlanish bosqichlarini turli mamlakatlar misolida ko'rsatadi. Unda vaqt o'qi (yillar) va mamlakatlar (Mesopotamiya, Italiya, Fransiya, Angliya, Germaniya, O'zbekiston) kesimida buxgalteriya hisobi shakllanish davrlari tasvirlangan.

1. Mesopotamiya — miloddan avvalgi 3000-yillar. Diagrammadagi eng qadimgi bosqich. Bu davrda buxgalteriya hisobi ilk bor sodda shaklda paydo bo'lgan. O'sha davrda xo'jalik mahsulotlari — don, hayvonlar, oltin va boshqa boyliklar loy taxtachalarga yoki papiruslarga yozilgan. Biroq bu yozuvlar biryoqlama xarakterda bo'lib, faqat kirim yoki chiqimni qayd etgan, balans tushunchasi mavjud emas edi. Qadimgi Yunoniston va Rim (miloddan avvalgi 1000-yillar)

Bu davrda davlat xazinasi, soliqlar, harbiy xarajatlar bo'yicha alohida "registrlar" yuritilgan. Lekin buxgalteriya amaliyoti hali ham tizimlashtirilmagan edi.

2. Italiya — milodiy 1500-yillar. Buxgalteriya hisobi taraqqiyotida burilish nuqtasi. Aynan shu davrda "ikkiyoqlama yozuv" (double-entry bookkeeping)

tizimi yaratilgan. Luka Pacioli tomonidan yozilgan "Summa de Arithmetica" asari buxgalteriya nazariyasining asosini qo'ydi. Shu sababli 1494-yil buxgalteriya fanining rasmiy tug'ilgan yili sifatida tan olingan.

3. Fransiya — 1700-yillar. Davlat buxgalteriyasi tizimi rivojlana boshlagan. Moliya nazorati va davlat byudjeti hisobi shakllangan. Fransiyada "Ordonnance de Commerce" qonuni qabul qilinib, barcha savdogarlar uchun ikkiyoqlama yozuv yuritish majburiy etib belgilandi. Bu hujjat buxgalteriya hisobining davlat darajasida tartibga solinishiga asos bo'ldi. Germaniya va Niderlandiyada ham tijorat hisobotlari, foyda va zarar hisobi, balans turlari shakllandi.
 4. Angliya — 1850-yillar. Sanoat inqilobi davri. Buxgalteriya hisobi korxonalarda foyda va xarajatlarni aniq hisoblash vositasiga aylangan. Auditorlik amaliyoti paydo bo'lgan. Angliyada korporativ kompaniyalar uchun moliyaviy hisobot topshirish majburiyati joriy etildi. Bu zamonaviy moliyaviy hisobotlarning shakllanishida muhim qadam bo'ldi.
 5. Germaniya — 1860-yillar. Angliyaga o'xshash davr. Ilmiy buxgalteriya asoslari shakllangan, nazariy yondashuv kuchaygan. Germaniya "Tijorat qonuni" kuchga kirgan. Germaniyada buxgalteriya balansi, foyda va zarar hisobi huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Har bir korxona balans tuzish va natijani rasmiylashtirishga majbur edi.
 6. O'zbekiston — 2000-yillar. Mustaqillikdan so'ng milliy buxgalteriya tizimi xalqaro standartlarga moslashtirildi. Sovet davrida (1917–1991-yillar) buxgalteriya hisobi markazlashgan reja iqtisodiyotiga xizmat qilgan. 1960-yillardan boshlab ikkiyoqlama yozuv tizimi to'liq joriy etilib, yagona hisob rejalari asosida yuritila boshlandi. Bu davrda hisobning asosiy vazifasi iqtisodiy nazoratni ta'minlash bo'lgan. Mustaqillik yillarida buxgalteriya tizimi bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirildi. 1996-yilda "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi hamda 1997–2000-yillarda milliy buxgalteriya standartlarining ishlab chiqilishi sohada yangi bosqichni boshlab berdi. 2000-yillardan boshlab hisob jarayonlari kompyuterlashtirilib, 1C: Buxgalteriya kabi dasturlar keng joriy etildi. 2013-yildan yirik korxonalar xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tayyorlashni boshladi. So'nggi yillarda buxgalteriya tizimi raqamlashtirilib, elektron hujjat aylanishi va onlayn hisobot tizimlari amaliyotga joriy etildi.
- Diagramma shuni ko'rsatadiki, buxgalteriya hisobi Mesopotamiyada boshlanib, Italiya orqali nazariy shaklga ega bo'lgan, keyinchalik Yevropa davlatlarida rivoj topgan va hozirgi kunda O'zbekistonda xalqaro tizim asosida qo'llanilmoqda. Ya'ni, hisob tizimi qadimiy amaliy usullardan zamonaviy raqamli tizimlarga o'tgan. 1494-yilda italiyalik olim va rohib Luka Pacholi (1445-1515) "Schotlar va yozuvlar haqida traktat" kitobini yozadi. Unda ikkiyoqlama yozuv tizimi to'liq nazariy asosda tushuntirildi. Shu sababli Pacholi "buxgalteriya hisobining otasi" sifatida tan olingan. XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida yuz bergan sanoat inqilobi buxgalteriya hisobining yangi

bosqichini boshlab berdi. Ya'ni XIX asr oxiri (1880–1900-yillar). Sanoat inqilobi davrida ishlab chiqarish hajmi oshdi, bank va sug'urta tizimlari paydo bo'ldi. Hisob-kitob jarayonlarini tezlashtirish uchun mexanik hisoblash mashinalari ishlatila boshlandi. 1929-yil – Buyuk Depressiya (AQSh). Iqtisodiy inqiroz buxgalteriya hisobotlarining ishonchliligi muammosini yuzaga chiqardi. Natijada auditorlik nazorati va hisob standartlarini yaratish zarurati paydo bo'ldi. Katta korxonalar, fabrikalar va kompaniyalar paydo bo'lishi bilan hisobni yuritish murakkablashdi. Endi buxgalteriya nafaqat moliyaviy holatni, balki ishlab chiqarish samaradorligini ham nazorat qila boshladi. Bu davrda: Angliyada moliyaviy hisobot shakllari takomillashdi; foyda va zarar hisobotlari joriy qilindi. Shu davrda "Profit and Loss Account" — foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotning dastlabki shakllari paydo bo'ldi. 1673-yilda ingliz iqtisodchisi Richard Dafforne tomonidan yozilgan "The Merchants Mirror" ("Savdogarlar ko'zgusi") nomli asarda ushbu hisobot shaklining namunasi keltirilgani buxgalteriya tarixida muhim bosqich bo'lib hisoblanadi. XX asrda iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, aksiyadorlik jamiyatlari sonining ortishi va davlatning iqtisodiy boshqaruvdagi roli buxgalteriya hisobini yanada takomillashtirishni taqozo etdi. 1920–1930-yillar: Buxgalteriya nazariyasi fan sifatida shakllandi, AQShda "Financial Accounting Standards Board (FASB)" tashkil etildi. 1930–1940-yillar – AQShda GAAP (Generally Accepted Accounting Principles) tizimi joriy etildi. Bu butun dunyo uchun yagona buxgalteriya yondashuviga asos soldi. 1940–1960-yillar: Buxgalteriya hisobida elektron hisoblash mashinalari (EHM) va dastlabki kompyuter tizimlari qo'llanila boshlandi. 1973-yil: Xalqaro miqyosda International Accounting Standards Committee (IASC) tuzildi, bu esa keyinchalik IFRS (Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari) tizimiga asos bo'ldi. 1980–1990-yillar: Audit, boshqaruv hisobi, soliq hisobi kabi yo'nalishlar mustaqil tarmoqlar sifatida rivojlandi. Bu jarayonlar buxgalteriyani nafaqat hisob-kitob tizimi, balki boshqaruv va nazorat vositasi sifatida shakllantirdi. XXI asrda iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayoni buxgalteriya hisobini tubdan o'zgartirdi. Bugungi kunda: 1C Accounting, SAP, Oracle, QuickBooks kabi avtomatlashtirilgan dasturlar keng qo'llanilmoqda; Sun'iy intellekt (AI) va Big Data texnologiyalari yordamida buxgalteriya jarayonlari tez va aniq bajarilmoqda. Shuningdek, ko'plab mamlakatlarda, jumladan O'zbekiston Respublikasida ham, xalqaro standartlar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yilda qabul qilingan "Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini joriy etish to'g'risida"gi qaror bu yo'nalishda muhim qadam bo'ldi. Hozirgi davrda buxgalteriya hisobi: iqtisodiy tahlil, strategik boshqaruv, davlat nazorati uchun zarur axborot manbai sifatida qaralmoqda. 2020-yildan hozirgacha – Sun'iy intellekt va bulutli hisob tizimlarida ishlayapti. Hozirgi bosqichda buxgalteriya tizimlari AI va Machine Learning texnologiyalari asosida ishlaydi. Dasturlar avtomatik ravishda xatolarni aniqlaydi, hujjatlarni tahlil qiladi va prognozlar tuzadi. Xero, Zoho



Books, QuickBooks Online kabi bulutli xizmatlar keng tarqalgan. 2023–2025-yillar – Blokcheyn asosidagi hisob tizimlari: EY, PwC kabi yirik kompaniyalar blokcheyn-auditorlik tizimlarini sinovdan o'tkazmoqda. Bu texnologiya moliyaviy operatsiyalarni o'zgartirilmaydigan tarzda saqlash va tekshirish imkonini beradi.

Xulosa. Buxgalteriya hisobi insoniyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning ildizlari eng qadimiy sivilizatsiyalar davriga borib taqaladi. Dastlab Mesopotamiya, Misr va Hindistonda hisob-kitob ishlari sodda shaklda yuritilgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan bu tizim iqtisodiy faoliyatning ajralmas qismiga aylandi. XIII–XIV asrlarda Italiyada ikkiyoqlama yozuv tizimining yaratilishi buxgalteriya tarixida tub burilish yasadi va fanning ilmiy asoslarini shakllantirdi. Keyingi asrlarda Fransiya, Angliya va Germaniyada buxgalteriya hisobi davlat moliyasi, audit va korxona boshqaruvi tizimlarida keng qo'llanila boshlandi. XX asrda esa buxgalteriya hisobi xalqaro me'yorlar darajasiga ko'tarilib, standartlashtirish, avtomatlashtirish va elektron tizimlar asosida rivojlandi. XXI asrga kelib raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va axborot tizimlari buxgalteriya faoliyatini yanada samarali, tezkor va shaffof holga keltirdi. O'zbekiston Respublikasida ham bu soha jadal rivojlanmoqda. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining joriy etilishi, buxgalteriya tizimining raqamlashtirilishi va avtomatlashtirilgan dasturlarning keng qo'llanilishi milliy buxgalteriya tizimini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Shunday qilib, buxgalteriya hisobi oddiy yozuvlardan boshlangan bo'lsa-da, bugungi kunda iqtisodiy tahlil, strategik boshqaruv va davlat nazoratining eng muhim vositasiga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pachioli L. (1494). Aritmetika, geometriya, proporsiya va proporsionallik haqida umumiy risola. – Venetsiya.
2. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS). – Xalqaro buxgalteriya standartlari kengashi (IASB), 2001–2024-yillar.
3. Buxgalteriya hisobi: Darslik / A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov; - T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. 624 b.
4. Bakiyeva X., Rizayev N. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Masalalar to'plami. - T.: TMI, 2007 y
5. Xolbekov R.O. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. - T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 201 ly.
6. Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi va audit. Toshkent - 2004.

